

“MEHNAT MUHOFAZASI” FANINI ZAMONAVIY, YANGI INTERFAOL METODLAR ORQALI TASHKILLASHNING O'ZIGA XOS TOMONLARI

Umarov Qudrat Xojiakbar o'g'li

*Toshloq tuman 1-son kasb-hunar maktabi
maxsus fanlar katta o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada “Mehnat muhofazasi” fanining o'quvchi va talabalarga o'rgatishda o'ziga xos yangi usullar orqali o'tish va zamonaviy bilim berishda metodlarning o'ziga xos ijobiy ahamiyati haqidagi fikr-mulohazalar berilgan.*

Kalit so'zlar: *Mehnat muhofazasi, “Aqliy hujum”, “Venn diagrammasi”, “Tushunchalar tahlili”.*

Mehnat muhofazasi - inson ning mehnat jarayonidagi xavfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyatining saqlanishiga qaratilgan tadbirlar. Qonun hujjatlarida mehnat jarayonida qo'llaniladigan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnik, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika chora tadbirlari belgilab qo'yiladi. Mehnat qiluvchi shaxs xavfsizligi, salomatligi, mehnat qilish qobiliyatini himoyalash, sog'lom mehnat sharoitlari yaratish, kasb kasalliklari yuz berish xavfini oldini olish, ishlab chiqarishda jarohatlanishlarga yo'l qo'ymaslik kabilar mehnat muhofazasi oldidagi vazifalar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida xavfsiz va qulay mehnat sharoitida ishlash yuzasidan fuqarolarning huquqlari Konstitutsiyada (37-modda) mustahkamlab qo'yilgan. Ushbu konstitutsiyaviy kafolatni amalda ro'yobga chiqarilishiga qaratilgan aniq chora tadbirlar O'zbekiston Respublikasi ning Mehnat kodeksida, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun (1993-yil 6-may)da, boshqa bir qator qonunlar va qonun osti normativ hujjatlarida belgilangan. O'zbekistonda Mehnat muhofazasi uchun katta moliyaviy mablag'lar ajratiladi va o'zlashtiriladi. Sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitida mehnat qilish huquqi O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining eng asosiy mehnat huquqlaridan bo'lib hisoblanadi. Mehnat muhofazasiga oid talablar va standartlar Mehnat kodeksi, "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonun talablari asosida ishlab chiqariladigan korxonalar va tashkilotlarning ichki mehnat tartibi qoidalari, jamoa shartnomalari, tarmoq yoki mintaqaviy jamoa kelishuvlari, korxonalarining boshqa ichki normativ huquqiy hujjatlarida, muayyan soha, kasb, ish joylariga oid bo'lgan Mehnat muhofazasi standartlarida belgilab qo'yiladi. Mulkchilik shakli va xo'jalik yuritish usulidan qat'iy nazar barcha korxonalar, muassasalar, tashkilotlar o'z xodimlari uchun sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratishi, xavfsizlik texnikasi choralari ko'rishini, mehnatni muhofaza qilish xizmatlarini tashkil etishi, boshqa tashkiliy texnik tadbirlarni amalga oshirishi shart.

Insonning mehnat xavfsizligini ta'minlashda ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko'rsatmalar, qoidalar va sanitar-

texnik me'yorlar hamda ularni o'rganish bo'yicha uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o'rin tutadi.

Mehnat muhofazasi qoidalariga rioya etilishi maxsus davlat organlari va jamoatchilik tomonidan nazorat qilib boriladi. Qonunlarga, shu jumladan, Mehnat muhofazasiga oid qonunlarga rioya etilishi ustidan O'zbekiston Respublikasi Bosh prokurori va unga bo'ysunuvchi prokurorlar umumiy nazorat olib boradi. Mehnat muhofazasi haqidagi qonun talablarini buzgan korxonalariga moliyaviy-iqtisodiy jazo choralari, ularning mansabdor shaxslariga nisbatan esa institutizomiy?, ma'muriy-huquqiy, jinoiy javobgarliklar qo'llanishi, ular aybi bilan yetkazilgan moddiy zararlar qoplanirishi mumkin.

Mehnatni muhofaza qilish fanining asosiy maqsadi talabalarga insonning ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli faktorlar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari, mehnat xavfsizligini ta'minlash, hamda xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish bo'yicha nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir.

Yuqoridagilarga mos holda talabalar fanni o'rganish davomida quyidagilarni nazariy jihatdan o'zlashtirishlari lozim:

- mehnat xavfsizligining nazariy asoslari. Ergonomika va mehnat xavfsizligi psixologiyasi haqida tushuncha;
- mehnat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy tamoyillar, uslublar va vositalar tizimi;
- mehnat xavfsizligini boshqarish asoslari;
- mehnat xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari.

Mehnatni muhofaza qilish fani asosan quyidagi 6 bo'limdan iborat:

- Mehnatni muhofaza qilishning nazariy asoslari.
- Mehnat muhofazasining huquqiy va tashkiliy asoslari.
- Ishlab chiqarish sanitariyasi va mehnat gigiyenasi .
- Xavfsizlik texnikasi asoslari.
- Yong'in xavfsizligi.
- Jarohatlanganda 1-tibbiy yordam ko'rsatish.

Yuqoridagi mavzularni o'rgatishda o'quvchilarni zamonaviy, interfaol metodlardan foydalanib, darslarni tashkillash orqali maqsadga aniqroq erishiladi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda fan o'qituvchilari uchun quyidagi usullarni tavsiya qilgan bo'lar edik:

Aqliy hujum metodi. Bu metod biror mavzu yuzasidan berilgan muammolarni hal etishda keng qo'llanadi. Mazkur metod o'quvchilarni muammo xususida keng va har tomonlama fikr yuritishga undaydi. «Aqliy hujum» metodi yordamida qo'yilgan muammo yuzasidan bir necha echimlarni topish imkoniyati yuzaga keladi. «Aqliy hujum» metodidan foydalanishda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

1. Berilgan muammo yuzasidan o'quvchilarning atroflicha va chuqur mulohazalar yuritishga undash va shunga erishish.

2. O'quvchilarning fikrlari va g'oyalari rag'batlantirib borish tanqid ostiga olinmaslik, ularning erkin fikrlashlariga sharoit yaratish.

3. Har bir o'quvchi fikrlariga va g'oyalari asoslanishi mumkin, ularni o'zgartirishi mumkin.


4. O'quvchilar tomonidan bildirilgan fikrlar va g'oyalarni baholamaslik.

Masalan, "Mehnat muhofazasi" fani inson hayotida qanday muhim ahamiyat kasb etadi? Biz nima uchun bu fanni atroflicha o'rganamiz? Bu fanni chuqur bilamaslikning salbiy oqibatlarini haqida o'zingizning fikr-mulohazalaringizni bildiring. Bu metoddan yangi mavzuni mustahkamlash va yangi mavzuni takrorlashda foydalanish mumkin.

"Venn diagrammasi" metodi. Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur [metod turli tushunchalar](#), asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi. Metodni amalga oshirish tartibi: ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralari ichiga [yozib chiqish taklif etiladi](#); navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar; juftliklarning [tahlili eshitilgach](#), ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) [izlab topadilar](#), umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Texnik tamoyillar

Tashkiliy tamoyillar




"Tushunchalar tahlili" metodi. Bu metod orqali mavzudagi tushunarsiz bo'lgan so'z va tayanch iboralar tahlil qilinadi.

No	Tushuncha	Tahlil
1.	Tamoyillar	bu g'oya, fikr, umumiy tushunchalar va umumiy qoidalardir.
2.	Uslub	bu umumiy qoidalardan kelib chiqadigan va maqsadga olib boradigan yo'l, maqsadga erishishning usulidir

3.	Radioaktiv nurlar	Yadroviy o'zgarishlar oqibatida vujudga keladigan elektromagnit va korpuskulyar nurlanishlar. Yani nurlanish oqibatida nafas yo'li orqali organizmga kirishi va ichidan nurlanish jarayoni
4.	Infraqizil nurlar	Suniy manbai mashina- mexanizmlar nuri inson organizimiga tasir etadi
5.	Kasb kasalligi	Mehnat qilish jarayonida kishi organizimiga salbiy tasir etadigan inson sog'ligidagi o'zgarishlar

“Baliq skeleti” metodi. Bu metod o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarni o'zida umumlashtirish xususiyatiga ega bo'lib, fikrlarini jamlash va bayon qila olishlari uchun asosiy omil vazifasini bajradi. “Baliq skeleti” ni tuzish qoidasi: baliqning tepa “suyagi”da mavzu bo'yicha muammolarni yozishda davom eting va past suyagida muammoni tasdiqlovchi dalillarni yozing. Qaysi qator ko'p suyakli “baliq skeleti”ni tuzishsa, rag'batlantiriladilar.

“Baliq skeleti ” usuli uchun ekspet varag'i:



Xulosa qilib aytganda, bugungi o'quvchi kelajakda ishchi, xizmatchi, dizayner, muhandis, shifokor, o'qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki boshqa biron bir sohani yaratuvchisi bo'ladilar. Ularni har biri uchun mehnat muhofazasi, texnika qoidalari, undan foydalanish lozim bo'ladi. Har qanday oddiy, asbobtexnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash uchun ham grafik bilim va malakalar kerak bo'ladi. Shu boisdan har bir kishi qonun-qoidalarni bilishi maqsadga muvofiqdir. Hayotda inson uchun muvaffaqiyatning asosiy sirlaridan biri, qulay vaziyat kelganda undan foydalanmoqlikka tayyor turishdir. Shunday ekan har doim o'qituvchi o'quvchining qiziqishi, qobiliyatini hisobga olib, darslarda didaktik, noan'anaviy, yangi usul va g'oyaga asoslangan holda, ularning ijodiy faolligini oshira bilishi va mustaqil kasbga yo'llay bilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston 1992
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi – T.: Adolat 1996
3. O'zbekiston Respublikasining imtiyozli pensiya ta'minoti va mehnatni muhofaza qilish bo'yicha me'yoriy hujjatlari-T.: Adolat, 2000
4. O'.R Yo'ldoshev, O.D.Raximov, R.T.Xo'jaqulov, O.T. Hasanova. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi.2014
5. A.Y.Parmanov, Sh.S.Sharipov, G'.T.Dadayev. Mehnat muhofazasi.2012